



DARSNI REJALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARINI O'RGANISH HAMDA REJALASHTIRISHNING AMALIYOTDAGI O'RNI.

Nuriddinova Nafisaxon Tolibjon qizi

O'ZDJTU, Roman-german

Amaliy fanlar kafedrası

nafisa.tolqinova.96@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada darsni rejalashtirishning ilmiy-nazariy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Dars loyihasi o'qituvchi uchun nafaqat o'quv jarayonini tizimli tashkil etish, balki muammoli vaziyatlarda moslashuvchan qaror qabul qilish imkonini beruvchi vosita sifatida qaraladi. Tadqiqotda turli mualliflarning (Meyer, Hubwieser, Becker, Smith & Ragan va boshqalar) ta'riflari asosida darsni rejalashtirishning asosiy komponentlari, maqsadlari va metodik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, dars rejasining ijodiy va moslashuvchan jarayon sifatida shakllanishi, uning o'qituvchi shaxsini rivojlantirish, bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Darsni rejalashtirish, dars loyihasi, didaktika, ta'lim jarayoni, metodika, o'qituvchi faoliyati, o'qituvchi kompetensiyasi, pedagogik ijodkorlik.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical foundations of lesson planning. A lesson plan is considered not only as a tool for the systematic organization of the educational process but also as a means that enables teachers to make flexible decisions in problematic situations. Based on the definitions provided by various scholars (Meyer, Hubwieser, Becker, Smith & Ragan, etc.), the study highlights the main components, objectives, and methodological features of lesson planning. Furthermore, the article emphasizes the role of lesson planning as a creative and adaptive process that contributes to the development of students' personality, knowledge, skills, and competences.

Keywords: Lesson planning, lesson design, didactics, educational process, methodology, teacher's activity, student competence, pedagogical creativity.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и практические основы планирования урока. План урока рассматривается не только как инструмент системной организации учебного процесса, но и как средство, позволяющее учителю гибко принимать решения в проблемных ситуациях. На основе определений различных авторов (Мейер, Хубвизер, Беккер, Смит и Раган и др.) раскрываются основные компоненты, цели и методические особенности планирования урока. Кроме того, обосновывается роль урока как творческого и адаптивного процесса, способствующего развитию личности учащихся, формированию знаний, умений и компетенций.

Ключевые слова: *Планирование урока, проект урока, дидактика, учебный процесс, методика, деятельность учителя, компетентность ученика, педагогическое творчество.*

Ta'lim tizimida dars o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Dars samaradorligi esa, eng avvalo, uning qay darajada puxta rejalashtirilganiga bog'liqdir. Darsni rejalashtirish o'qituvchidan aniq maqsad qo'yishni, o'quv jarayonining mazmuni va metodlarini belgilashni, shuningdek, natijalarni baholash mezonlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida darsni rejalashtirish faqatgina o'quv dasturini bajarish vazifasini emas, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va ijtimoiy faoliyatni rivojlantirishni ham ta'minlaydi. Shu sababli, darsni rejalashtirishning nazariy asoslarini o'rganish va uning amaliy ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslash muhim ilmiy-pedagogik masalalardan biridir.

Mavzuni yoritilishidan avval nazariy asoslar va amaliy ahamiyati haqida to'xtalib o'tamiz.

- Nazariy asoslari – pedagogika va didaktika fanidagi konsepsiyalar, maqsad va tamoyillarni ochib beradi.

- Amaliy ahamiyati – o'qituvchining kundalik faoliyatida darsni puxta tashkil etish zaruriyatini asoslaydi. [1.56]

. Darsni rejalashtirish ta'lim jarayonining asosiy bo'g'ini bo'lib, o'qituvchi faoliyatining samaradorligini ta'minlaydi. Har bir dars oldindan puxta o'ylangan maqsad, mazmun, metod va vositalarga tayangan holda tashkil etilishi zarur.

Darsni rejalashtirish atamasini tushuntirish uchun avvalo uning ikki tarkibiy qismi – “dars” va “rejalashtirish” –ni aniqlab olish hamda darsni rejalashtirish jarayonining turli jihatlarini ko'rsatib berish zarur.

Duden lug'atida “Unterricht” (dars) quyidagicha ta'riflangan: “o'quvchini yoki o'quvchilarni o'qituvchi tomonidan rejali va muntazam ravishda o'qitish”. Sinonim sifatida Schulstunde (maktab darsi) keltiriladi: “maktabdagi o'quv darsi”. Ushbu ta'rif intuitiv tushuncha bilan mos keladi, biroq u faqat o'qituvchining faol o'qitish faoliyatiga qaratilgan bo'lib, mazmun yoki jarayon haqida aniq ma'lumot bermaydi. [1.58]

Meyerning fikriga asosan, “Dars – bu o'qituvchi va o'quvchilarning shaxsiy rivojlanish hamda bilim, metod va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida o'zlari yoki tashqi tomondan belgilangan vazifalar ustida rejali hamkorlik qilishidir.

- (1) U maqsadga yo'naltirilgan.
- (2) U mazmun asosida tashkil qilinadi.
- (3) Unga xos vaqt ritmi mavjud.
- (4) U turli ijtimoiy shakllarda amalga oshiriladi.
- (5) U o'qituvchi va o'quvchilarning didaktik-metodik faoliyati orqali tashkil etiladi.
- (6) U tayyorlangan muhitni talab qiladi.” [5.76]

Hubveiserni fikriga ko'ra, "Dars – bu murakkab, ko'plab, shu jumladan, tsiklik o'zaro ta'sirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon bo'lib, unda o'qituvchi va o'quvchilar ma'lum ijtimoiy, byurokratik va moddiy sharoitlarda belgilangan maqsadlar sari hamkorlikda faoliyat yuritadilar. Uzoq muddatda esa bu jarayon butun jamiyatga va jamiyat tomonidan belgilangan talablar hamda ko'rsatmalarga ta'sir ko'rsatadi." [4 103]

Meyer va Hubwieser kabi aniq ta'riflarni ko'plab darsga tayyorgarlik yoki darsni rejalashtirishga bag'ishlangan asarlarda uchratish qiyin. Masalan, Barsig va Berkmüller faqatgina grafik ko'rinishda turli ta'sirlar (vositalar, maqsadlar, mazmun, o'quvchilarning shart-sharoitlari, metodlar, o'zaro aloqalar, guruhlar, maktab va jamiyat) hamda ularning natijalarini ko'rsatib bergan.

Becker esa "dars" tushunchasidan ko'ra "o'qitish-o'rganish jarayoni"ni ishlatadi va uni o'qituvchi tomonidan boshqariladigan, bir-biriga bog'liq o'qitish-o'rganish bosqichlaridan iborat deb ta'riflaydi. [2.98]

1. Dars – bu sun'iy ravishda yaratilgan o'quv vaziyatlari va o'quv jarayonlarining institutsionallashtirilgan shakli.

2. Dars – interaksiya va kommunikatsiya bilan bog'liq jarayondir.

3. Dars – nafaqat bilim berishga, balki to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita tarbiya, xarakter shakllanishi va shaxsiy rivojlanishga xizmat qiladi.

4. Dars – rejalashtirilgan, maqsadli va ongli ravishda tashkil etiladi.

5. Dars – turli metodlar orqali shakllantiriladi.

Ta'lim jarayoni haqida berilgan ta'riflar va yondashuvlar ularning umumiy jihatlarini ko'rsatadi: dars – bu muntazam, murakkab va oldindan belgilangan maqsad sari yo'naltirilgan jarayondir. U interaksiya va kommunikatsiya orqali kechadi, bunda turli metodlar va ijtimoiy shakllar qo'llanadi. Maqsad faqat bilim berish emas, balki tarbiyalash, shaxsiy fazilatlarini shakllantirish hamdir, shu bois dars jamiyatga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. [3.79]

Dars tushunchasining ikkinchi asosiy qismi – bu rejalashtirishdir. "Rejalashtirish" tushunchasi Duden lug'atida ham jarayon, ham natija (ya'ni reja) sifatida ta'riflanadi. Reja — ma'lum bir maqsadga erishish yo'lida amalga oshiriladigan tadbirlar majmuini ifodalaydi. Meyer ta'rifiga ko'ra, rejalashtirish – bu turli harakatlarni oqilona bog'lash orqali qarorlarni oldindan belgilash jarayonidir. [7.]

Shunday qilib, darsni rejalashtirish ikki jihatni o'z ichiga oladi:

1. Jarayon sifatida – darsning qanday kechishini oldindan loyihalash.

2. Natija sifatida – dars o'tishning konseptual modeli yoki rejasi.

Darsni rejalashtirishning asosiy maqsadlarini quyidagicha :

- sinf oldida ishonch bilan chiqish,
- muloqotni samarali olib borish,
- o'quv jarayonidagi qadamlarni aniq belgilash,
- ilmiy va mantiqiy to'g'rilik,

- belgilangan o‘quv maqsadlariga yo‘naltirish,
- sinf, guruh va har bir o‘quvchining ehtiyojlarini inobatga olish,
- darsning har bir jihatini umumiy mavzu va o‘quv sohasi bilan bog‘lash.

Shuni ta’kidlash lozimki, dars interaktiv jarayon bo‘lgani uchun unda kutilmagan holatlar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli darsni rejalashtirish doimiy jarayon bo‘lib, tajribalar asosida qayta ko‘rib chiqiladi va takomillashtirib boriladi. [4.68]

Ba’zan dars jarayonida “ijrodagi xatolar” yuz berishi mumkin. [6.] Biroq bu holat darsni umuman rejalashtirmaslikka olib kelmasligi kerak, chunki puxta tuzilgan dars loyihasi o‘qituvchiga muammolarni vaziyatga mos ravishda hal etish imkonini beradi. Dars rejasi o‘qituvchiga o‘z maqsad va niyatlarini aniq belgilash hamda ularni chuqur o‘ylab chiqishda yordam beradi. Reja aslida darsning “bo‘lishi kerak bo‘lgan” ko‘rinishini ifodalaydi va o‘qituvchi uchun dars jarayonida fikriy tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. DROSDOWSKI, Günther (Hrsg.): *Duden, das grofite Wörterbuch der deutschen Sprache in acht Bänden. 2., völlig neu bearb. u. erw. Aufl.* Mannheim: Dudenverlag, 1994. – ISBN 3–411–04732–1

2. GONSCHOREK, Gernot; SCHNEIDER, Susanne; PETERSEN, Jörg (Hrsg.); REINERT, Gerd-Bodo (Hrsg.): *Einführung in die Schulpädagogik und die Unterrichtsplanung. 7., überarb. und aktualisierte Aufl.* Donauwörth: Auer, 2010. – ISBN 978–3–403–03216–8

3. HANSEN, Cory C.: Technology as an Electronic Mentor: Scaffolding Preservice Teachers in Writing Effective Literacy Lesson Plans. In: *Journal of Early Childhood Teacher Education* 27 (2006), Feb, Nr. 2, S. 129–148. <http://dx.doi.org/10.1080/10901020600675091>. – DOI

4. KLAFKI, Wolfgang: Didaktische Analyse als Kern der Unterrichtsvorbereitung. In: *Die deutsche Schule.* (1958), Nr. 10, S. 450–471

5. MEYER, Hilbert: *Unterrichtsmethoden I: Theorieband.* 5. Auflage. Frankfurt am Main: Cornelson Scriptor, 1987. – ISBN 3–589–20850–3

6. <https://zfl-lernen.de/lernmodule/uncategorized/theoretische-grundlagen-unterrichtsplanung-im-foerderschwerpunkt-geistige-entwicklung-ziemen/lektionen/ziemen-mehrdimensionale-reflexive-didaktik/>

7. https://www.uni-muenster.de/Lernroboter/manuellefreigabedaten/vortraege/2019.11_Fehrmann_Unterrichtsplanung.pdf